

- 12.APA (2020). The Science of Stress Management. American Psychological Association.
- 13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga oid qarorlari va farmonlari. (2017-2022).
- 14.Bo‘lajak pedagogik kadrlarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi muammosi va uning ilmiy pedagogik tahlili (Umarov Xusan Abduraximovich)

## **O‘zbek tilining xalqaro miqyosda nufuzini oshirish yo‘llari**

Nuriddinova Diyora Shuxratbek qizi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilining nufuzini xalqaro miqyosida qanday oshirish mumkinligi haqida muallif tomonidan izlanish va xulosalar berilgan. Muallif maqolani kengroq ko‘lamda yoritish uchun internet manbalari hamda jahonning mashhur tilshunoslari qarashlariga ham to‘xtalgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek tili, xalqaro munosabat, media, kontent, ijtimoiy tarmoqlar, diplomatiya, turizm, biznes.

“Ways to increase the prestige of the Uzbek language at the international level”

**Abstract:** this article provides research and conclusions by the author on how to increase the prestige of the Uzbek language internationally. The author has also touched on the views of internet sources as well as world-renowned linguists to bring the article to wider coverage.

**Key words:** Uzbek language, international relations, media, content, social networks, diplomacy, tourism, business.

“Пути повышения международного авторитета узбекского языка”

**Аннотация:** В этой статье представлены исследования и выводы автора о том, как повысить престиж узбекского языка на международном уровне. Автор также затронул интернет-ресурсы, а также взгляды всемирно известных лингвистов, чтобы осветить статью в более широком масштабе.

**Ключевые слова:** узбекский язык, международные отношения, медиа, контент, Социальные сети, дипломатия, туризм, бизнес.

**Kirish:** O‘zbek tili – boy tarixga ega, rivojlanayotgan va keng muloqot vositasi sifatida shakllanib borayotgan til. Bugungi global dunyoda har bir millat o‘z tilining xalqaro maydondagi mavqeini oshirishga intiladi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Bu jarayonda ta’lim, ilm-fan, media, tarjima va diplomatiya kabi sohalar muhim rol

o'ynaydi. Bugungi kunda o'zbek tilini dunyo bo'yicha 30 milliondan ko'proq odam ona tili, deb biladi; ikkinchi til sifatida biladiganlar hisobiga bu son 50 millionga yetadi. Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'izistonda millionlab o'zbeklar bor; Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiyada ham mavjud; Turkiya, Saudiya, Pokiston, AQSh, Janubiy Koreyadagi diasporalarni qo'shsak, qolaversa, o'zbek tilining Shinjon-Uygur muxtor olkasiga madaniy tasirini inobatga olsak, o'zbek tilida asosiy mintaqaviy til bo'lishga yetarli resurslar mavjudligini his qilamiz. O'zbek tilining nufuzini jahon miqyosida oshirish uchun quyidagi 5 tamoyilni ko'rsata olamiz.

Asosiy qism:

1. Ta'lim va ilmiy faoliyatni rivojlantirish. O'zbek tilining dunyo miqyosida keng tarqalishi uchun xalqaro ilmiy jurnallar va universitetlarda o'zbek tilida tadqiqot olib borish imkoniyatlarini oshirish kerak. Shu bilan birga, chet el oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
2. O'zbek tilida yuqori sifatli media va kontent yaratish. Bugungi kunda internet va media dunyoni birlashtiruvchi asosiy vositalardan biridir. O'zbek tilidagi kontentning ko'payishi va sifatli bo'lishi uning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Shu sababli: YouTube, Netflix kabi platformalarda o'zbek tilidagi sifatli materiallarni joylashtirish; O'zbek tilidagi ilmiy va badiiy audiokitoblar, maqolalar va bloglarni ko'paytirish; O'zbek tilida xalqaro auditoriya uchun qiziqarli serial va filmlar yaratish lozim.
3. Tarjima va adabiyot sohasida rivojlanish . O'zbek adabiyoti dunyoga chiqishi uchun klassik va zamonaviy asarlarni turli tillarga tarjima qilish muhim. Ayni paytda, jahon adabiyotining eng yaxshi asarlarini o'zbek tiliga o'girish ham til boyishiga katta hissa qo'shadi.
4. Diplomatiya va xalqaro aloqalarni kengaytirish . O'zbek tilining xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, UNESCO kabi tuzilmalarda qo'llanilishi uning nufuzini oshiradi. Shu maqsadda: O'zbek tilini chet eldagi diplomatik muassasalarda keng targ'ib qilish; Xalqaro anjumanlarda o'zbek tilidan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.
5. Turizm va biznes tili sifatida rivojlantirish. O'zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun o'zbek tilini o'rganishga rag'batlantirish, mehmonxona va turistik joylarda ko'p tilli xizmatlar joriy etish ham muhim. Shu bilan birga, xorijiy sarmoyadorlar uchun o'zbek tilida biznes muhitini tushuntiruvchi materiallar tayyorlash kerak.

Xulosa

O'zbek tilining xalqaro maydondagi mavqeini oshirish uzoq muddatli va keng qamrovli jarayon. Ta'lim, media, tarjima, diplomatiya va turizm kabi sohalarda

strategik ish olib borilsa, o'zbek tilining jahon miqyosida nufuzli tilga aylanishiga erishish mumkin. Bu nafaqat milliy g'ururni mustahkamlash, balki O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro'sini ham oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Darakchi.uz sayti

2.<https://t.me/eduuz/19152>

## **BOLALAR TARBIYASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI**

*Zokirova Laylo Shamsiddinovna*

*Davlat Maktabacha Ta'lim Tashkiloti*

*Direktor o'rinbosari.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun oilaviy tarbiya va ta'lim tashkiloti o'zaro uyg'unlikda ishlashlari ta'kidlanadi. Hamda ota onalat va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik ishkari ko'rib chiqiladi. Maqolada olimlarning fikirlari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, oila bilan hamkorlik, bolalar shaxsi, bola tarbiyasi, metod

Bolalar tarbiyasi murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, unda ota ona, oila, pedagoglar va jamiyat muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Ushbu hamkorlik bola shaxsining shakillanishi, uning intellektual, ahoqiy, jismoniy va estetik tarbiyasiga ta'sir qiladi. Har bir bolaning dunyo qarashi, fel atvori har xil bo'ladi. Bolaning nimani yaxshi ko'rishiyu, nimani yomon kurishini tarbiyachiga nisbatan ota onasi oila a'zolari yaxshi bilishadi shunday ekan bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikda ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Farzand ta'lim tarbiyasi va rivojlanish tamoyili asosida amalga oshiriladigan bu hamkorlik bolalarni qiziqishini, o'z faoliyat jarayonini tahlil qilishni hamda ota ona tomonidan farzandini muntazam nazoratini mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ma'naviy ahloqiy, aqliy estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi